

**JEYN OSTIN ASARLARINING XIX ASR BOSHLARIDAN XX ASRGACHA
BO'LGAN DAVRDA AYOLLAR, NIKOH, TA'LIM VA QULLIKKA BO'LGAN
JAMIYATDAGI MAVJUD MUAMMOLARGA TA'SIRI**

Abdulxay Qosimov Axadali o'g'li

Farg'ona davlat universiteti, Amaliy ingliz tili kafedrası o'qituvchisi

Email: a.qosimov@pf.fdu.uz

Annotatsiya. Hammamizga ma'lumki, yozilgan fikrlar jamiyatdagi odamlarning hayollari, munosabati va qarorlari ustidan ulkan kuchga ega. Shuni alohida ta'kidlash joiz, badiiy adabiyotning ushbu jihati yaxshi o'rganilgan bo'lsa-da, muallifning badiiy adabiyot orqali ko'rsatishi mumkin bo'lgan “kuchli ta'siri” unchalik yaxshi o'rganilmagan. Muallif o'z g'oyalarni bilvosita taklif qilishi, qahramonlarni tasvirlash usullari va badiiy kitoblarning umumiy mavzulari o'quvchilarning muayyan g'oya va dunyoqarashlarga ta'sir qiladi, natijada ifodalangan fikr yoki qarashlarga o'quvchi munosabatini o'zgartirishiga turtki bo'ladi.

Kalit so'zlar: badiiy uslub, adabiyotshunos, voqelik, Jeyn Ostin, obrazli til vositalari, metafora, kinoya.

Kirish.

Badiiy adabiyotning jamiyatga ta'sirini inkor etib bo'lmaydi. Adabiyot har bir muallif, shoir va adabiyotshunos uchun ifoda shakli sifatida namoyon bo'ladi. Ba'zi asarlar jamiyat hayotini aks ettiradi va biz yashayotgan dunyoni yaxshiroq tushunishga imkon beradi. Badiiy asarning o'quvchilar ongiga o'zaro ta'siri haqida angliyalik tilshunos olim Friend ham o'zining “Badiiy filmning hissiy ta'sirini baholash” nomli ilmiy ishida alohida to'xtalib o'tgan. U qarashlarida ushbu ta'sir kuchini baholar ekan, XIX asrda insonlar fantastika janrini shunchaki o'yin-kulgi ekanligiga ishonishiga qaramay, adabiyot odamlarning “haqiqiy odamlar, voqealar va vaziyatlar” ga bo'lgan munosabatiga ta'sir qiladi degan xulosaga keladi.

Yana bir britaniyalik taniqli adabiyotshunos olim, yozuvchi Lyuis adabiyotning jamiyat hayotidagi o'rniga to'xtalar ekan, uni shunday ta'riflaydi. “Adabiyot voqelikni nafaqat tasvirlaydi, balki uni to'ldiradi. U kundalik hayotimiz tomonidan talab qilinadigan va ta'minlanishi zarur bo'lgan kompetensiyalarni boyitadi va shu munosabat bilan u hayotimizning allaqachon “cho'lga” aylanib qolgan qismlarini “sug'oruvchi” vosita hisoblanadi.”

Nodir badiiy va she'riy asarlarni o'qish orqali inson hayotning qonunlaridan xabardor bo'ladi. Ular insonga hayotning turli jabhalarini yaqindan ko'rib chiqishga imkon beradi. Turli janrdagi badiiy adabiyotlar ko'p jihatdan hayotga bo'lgan dunyoqarashni o'zgartirishi mumkin. Tarixiy shaxslarning tarjimai holi, jasorat, fidoyilik va boshqa ezgu qadriyatlar haqidagi haqiqiy hikoyalar o'quvchilarni ilhomlantirishdan to'xtamaydi. Bunday badiiy asarlar jamiyatdagi insonlarga buyuk insonlar hayoti haqida tushuncha beradi va ularga hayotdagi komil inson obrazini gavdalantirishdagi muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Jeyn Ostin hayoti va badiiy merosi.

Jeyn Ostin XIX asrda yashab, ijod qilgan ingliz adabiyotida o'chmas iz qoldira olgan ingliz

yozuvchisidir. Ajoyib realist ingliz adibasi 1775-yil 16-dekabrida Stiventonda kent nasliga mansub oilada tavallud topgan. Shuni alohida ta’kidlash joiz, oiladagi badiiy adabiyotga bo’lgan qiziqish adibaning keyingi hayotida muhim rol o’ynaydi. Jejn Ostinni Valter Skottning yozgan romanlarini o’ziga rom qiladi. Jejn Ostin badiiy merosida “Aql va hissiyot” (1811), “Andisha va G’urur” (1813), “Mensflid Park”(1814), “Emma” (1816) kabi romanlari alohida o’rin tutadi. Jejn Ostin o’z asarlari nafaqat o’z davrining, balki hozirgi zamonaviy adabiyotning ham durdonalari qatorida turadi. Adiba ingliz romanchiligining buyuk namoyondalaridan biri sifatida qadrlanadi.

Jejn Ostinning asarlarida XVIII asr oxirlarida yozilgan sentimental ya’ni hissiy bo’rttirilgan romanlarni tanqid qiladi va uning asarlari XX asr ingliz adabiyotining realizm davriga o’tishning bir debochasi bo’lib xizmat qiladi. U asarlarida kundalik hayotdagi oddiy insonlarning turmush tarzini tasvirlaydi. Bu esa o’sha davr ingliz badiiy romanchiligiga alohida ajralib turuvchi zamonaviy xarakter berdi.

Jejn Ostin asarlarida jamiyatdagi muammolarning tasvirlanishi.

Jejn Ostin o’z asarlarida aynan u yashayotgan davrda Amerika va Britaniya jamiyatidagi o’rta va yuqori qatlamning ayollarga, nikoh, ta’lim va qullikka bo’lgan munosabatini o’zgacha usul bilan yoritib beradi. Uning asarlari ko’p hollarda yumoristik usuldan foydalanilgan, shuningdek, axloqiy muammolar, ayollarning jamiyat hayotidagi ijtimoiy mavqei va iqtisodiy xavfsizligi haqidagi ma’lumotlarni ham o’z ichiga oladi.

AQShning mashhur Stenford universiteti professori Aleks Wolox o’zining ilmiy izlanishlarida Jejn Ostin ijodini tahlil qilar ekan, uning asarlari o’zining yumoristik uslubi, asar qahramonlari, ularning o’rtasidagi o’zaro munosabatlarni hayotiy va batafsil tasvirlay olishi bilan o’ziga jalb qilishini ta’kidlagan. Shuni takidlash joiz, Jejn Ostin ingliz badiiy adabiyotida eng yirik adabiy arboblardan biridir. Uning asarlaridagi o’ziga xoslik va nafislik yozuvchilar e’tirofiga sazovor.

Ayniqsa, adabiyotshunoslar Ostinning erkin bilvosita nutqdan uchinchi shaxs bayoni uslubi sifatida nozik, yangicha usuldan foydalanishiga alohida e’tibor qiladilar. Qahramonning nuqtai nazari, fikr-mulohazalari hikoyachi bilan chambarchas bog’liq bo’lgan bu uslub hozirda zamonaviy badiiy adabiyotda keng tarqalgan bo’lsa-da, XVIII asr oxiri — XIX asr boshlarida endigina shakllana boshlangan ushbu uslubdan Jejn Ostin birinchilardan bo’lib foydalangan. Jejn Ostin uslubi XIX asr o’rtalarida boshlangan va Lev Tolstoy, Jorj Eliot va Charlz Dikkins kabi yozuvchilarni o’z ichiga olgan badiiy realizm harakati uchun zamin yaratdi.

Sulloy (2016) o’z izlanishlarida Jejn Ostin o’z romanlari orqali ilgari surgan ko’plab bahsli g’oyalarni o’rgangan. Xususan, Ostin o’z qahramonlari orqali ko’pincha ayollar haqida gap ketganda, ta’limga e’tiborsizlik natijasini ko’rsatib beradi. Bundan tashqari, Mansfild Park qullikning g’ayriinsoniyligiga ishora qilib, Ostinni munozarali mavzularda o’z g’oyalarni qo’llab-quvvatlashdan qo’rqmaydigan ayol ekanligini ko’rsatadi.

Pollak-Pelznerning (2013) maqolasida Jejn Ostin va Shekspir asarlari o’rtasidagi o’zaro o’xshashliklar ko’rib chiqilgan. Jejn Ostin, ayniqsa, Mansfild Park asarida Shekspir asarini eslatuvchi sahnalarni yozadi va ko’pincha uning qahramonlari Shekspir va uning ijodini hurmat qilishadi. Odamlar Ostinni Shekspir va boshqa taniqli mualliflar bilan solishtirgani, uning romanlari odamlarning ta’lim haqidagi fikrlariga qanchalik ta’sir qilganidan dalolat beradi. Ostin har bir asarida

ta’limning hayotimizdagi muhim o’rni haqida ta’kidlagan.

Mazzeno (2011) Jeyn Ostinning asarlarini nashr etilganidan so’ng ham asrlar davomida o’z mavqesisini yo’qotmayotganini ta’kidlar ekan, Ostin odamlarning ta’limga bo’lgan munosabatiga ta’sir qilishda eng samarali figuralardan biri bo’lgan degan xulosaga keladi. Uning roman tuzilishiga va ingliz tilidagi ta’limiga ta’siri haqiqatan ham 1890-yillarda gullab-yashnay boshladi va u o’zining g’ayrioddiy badiiy uslubi uchun ser Valter Skott va ser Valter Roli kabi mashhur romanchilar tomonidan maqtovg’a sazovor bo’ldi (Mazzeno, 2011). Mazzenoning fikricha, garchi Ostinning asarlari ta’limga ta’siri bilan bog’liq bo’lsa-da, u boshqa mavzularni chuqurroq ko’rib chiqmaydi, buni esa o’sha davrdagi realizmga bo’lgan cheklovlar bilan bog’lash mumkin deya hisoblaydi.

Uayt (2006) ham Ostinning “Mansfield Park” va “Andisha va G’urur” asarlarida oq va qora tanlilarning qulligiga qaratilgan. Yuqorida aytib o’tilganidek, Mansfield Park o’quvchilarning e’tiborini asar qahramonlarining axloqiy ikkiyuzlamachiligiga qaratadi. Ammo Ostinning ushbu romani jurnallarda chop etilgan muhim adabiy sharhlardan ataylab chiqarib tashlash shaklida qarshilikka duch keldi (Uayt, 2006). Kitobni o’qigan Amerika va Britaniya jamiyatining taniqli vakillari romanning ma’naviy jihatdan sog’lom, ammo moliyaviy jihatdan halokatli saboqlari tufayli uning xalq orasida muvaffaqiyat qozonishini xohlamadilar. Hatto Mansfield Park noshiri Jon Myurrey kitobning birinchi nashridan keyin Jeyn Ostin bilan aloqalarni uzdi, chunki uning kitobi o’sha davr siyosiy tuzumiga juda ziddiyatli edi.

Todd (2005) o’zining kitobida Amerika va Britaniya jamiyatining o’rta va yuqori tabaqalarining Ostin romanlariga umumiy munosabatini o’rganib chiqadi. Xususan, “Andisha va g’urur”ga berilgan javoblar shuni ko’rsatdiki, jamiyatdagi ko’plab erkaklar romandan ayollar va nikoh haqidagi mavjud g’oyalarni qo’llab-quvvatlash uchun foydalangan. O’rta va yuqori sinflar Ostin o’z romanlarida ilgari surgan ayol ta’limining afzalliklari g’oyasini asardagi eng muhim g’oyalardan biri deb hisoblaydi. Shuningdek, Toddning ta’kidlashicha ko’plab insonlar Ostin ijodini Shekspir ijodi bilan taqqoslanganligini ta’kidlaydi. Bu esa o’z navbatida ko’pchilik Ostinning romanlari har bir adabiyotga yo’naltirilgan ta’lim dasturlarining bir qismi bo’lishi kerak degan g’oyani qo’llab-quvvatlanishini ko’rsatishi mumkin (2006).

Jeyn Ostin asarlarining o’ziga xususiyatlaridan yana bir, bu asar qahramonlari o’z davrining odamlaridan oldinda bo’lib, ko’pincha asar qahramonlari o’zida isyonkorlik va mustaqillik tuyg’ularini namoyish etadilar. Ushbu badiiy asarlarning aynan shunday xususiyati o’quvchini yozuvchi hissiyotlari bilan ajoyib darajada bog’laydi. Jeyn Ostin jamiyatdagi chirkin muammolarni tasvirlar ekan, bu davr hayotining qanchalik mashaqqatli ekanini uning birgina gapi orqali anglash qiyin emas. Masalan, Ostin “Dunyoni qanchalik ko’p kuzatsam, menga u shunchalik yoqmay ketyapti” deya ta’riflaydi. Ushbu so’zlar zamirida o’sha davrning o’ziga xos xususiyatlari, jamiyatdagi chirkin illatlar va madaniyatning qay darajada rivojlanganligini tasvirlab berishga harakat qiladi. Adibaning asarlarida ayollar hayoti yoritilar ekan, asardagi ayol qahramonlar ba’zan arziyas narsalar uchun aldanib qolishadi. Asarda o’sha davr ayollarining ko’pchiligi erkaklarni o’ziga qaratish va nufuzli oilalardan o’ziga juft topishni o’ziga asosiy maqsad qilib olganligini ko’rish mumkin. Jeyn Ostin ijodida “raqs” o’ziga xos metafora usulida qo’llanilgan, ya’ni adiba o’z asarlarida, jumladan “Andisha va G’urur” romanida “raqs” bu turmush qurish, yangi hayotga qadam

qo'yishning o'ziga xos bir o'xshashligi sifatida talqin qilingan. Jejn Ostin o'z asarlarida ayollar va erkaklardagi tuyg'ularni ifodalar ekan, kim yoki nima uchundir chiroyli va odobli ko'rinishga harakat qilishni, ya'ni yolg'onchi rollarni qoralaydi. Uning fikricha, bir kichi uchun odob va fazilatlar haqidagi o'z qarashlarini o'zgartirib bo'lmaydi. Inson asl qiyofasi adibaning nazdida oliy qadriyatdir, uni yashirish, yolg'on ishlatish mumkin emas.

Jejn Ostin asarlarida qo'llanilgan adabiy uslublar.

Jejn Ostinning o'ziga xos adabiy uslubi parodiya, yumor, istehzo, erkin bilvosita nutq va ma'lum darajada realizm kombinatsiyasiga asoslangan. U komik effekt uchun parodiya va yumordan foydalanadi. Ostin ijtimoiy ikkiyuzlamachilikni kinoya bilan ta'kidlaydi. Ostin ko'pincha erkin bilvosita nutq orqali istehzoli ohang yaratadi, unda qahramonlarning fikrlari va so'zlari hikoya qiluvchi shaxsning ovozi bilan aralashib ketadi. Ba'zi olimlar Ostinning individual personajlarni chiroyli tasvirlangani va “kundalik hayot”ga urg'u bergani uchun realistik an'anaga tushib qolganini ta'kidlaydilar. Jejn Ostin asarlari ko'pincha “qishloq uyi romanlari” yoki “axloq komediyalari” sifatida tavsiflanadi. Shuni alohida ta'kidlash joiz, Ostin romanlarida ertak elementlari ham mavjud. Ular XIX asr boshidagi boshqa romanlarga qaraganda kamroq hikoya yoki manzarali tavsifga ega va asarlarda dialoglarga ko'p bora duch kelishimiz mumkin. Adiba o'z romanlarida har bir qahramon, personaj uchun o'ziga xos, nozik tuzilgan ovozni shakllantiradi va har biriga alohida yondashadi.

Adibaning romanlaridagi syujetlar asosan ta'limga qaratilgan. Ostinning qahramonlari o'zlarining xatti-harakatlarini yanada aniqroq ko'rishga intilishadi va yaxshiroq, axloqli odamlarga aylanishga harakat qilishadi. Ostin XIX asr boshlari adabiyotida keng tarqalgan rasmiy axloqiylikdan uzoqlashsa-da, odob-axloq, jamiyat oldidagi burch va diniy jiddiylik bilan tavsiflangan axloq uning asarlarining markaziy mavzusidir. Uning butun romanlarida bilim olish, o'qish intellektual va axloqiy rivojlanish bilan bog'liqligi ta'kidlanadi. Romanlarda feministik mavzular qay darajada aks ettirilganligi olimlar tomonidan keng muhokama qilingan. Aksariyat tanqidchilar romanlarda ba'zi ayol qahramonlarning o'z dunyolarini qanday boshqarishi haqida qayg'urishi, boshqalari esa jismoniy va ma'naviy jihatdan cheklanganligini ta'kidlaydilar. Ostinning deyarli barcha asarlarida XVIII asr oxiri va XIX asr boshlarida ayollar duch kelgan qaltis ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatlar o'rganiladi.

Ingliz badiiy adabiyotida Jejn Ostin badiiy merosi alohida o'rin tutadi. Buni uning romanlari ingliz olimlari tomonidan har tomonlama tahlil qilib chiqilganligi yaqqol misol bo'la oladi. Xususan, uning asarlarini siyosiy jihatdan tahlil qilgan ingliz olimlari, Ostinning romanlari siyosiy jihatdan konservativ va progressiv deya ta'riflashadi. Misol uchun, uning asarlaridagi tanqidning bir yo'nalishi olaylik, uning qahramonlari o'zlarining burchlariga sodiqliklari va shaxsiy istaklarini qurbon qilishlari orqali mavjud ijtimoiy tuzilmani qo'lab-quvvatlaydilar. Boshqa olimlarning ta'kidlashicha esa, Ostin “boshqa” paternalistik hukmronlikka shubha bilan qaraydi, bu uning istehzoli ohangidan dalolat beradi. Ostin zodagonlar bilan bog'liq siyosiy masalalarni o'rganish doirasida pul va mulk bilan bog'liq masalalarni, xususan, mulkiy merosning o'zboshimchalik sifati va ayollarning beqaror iqtisodiy holatini ko'rib chiqadi. Uning romanlarida jamiyat da'volari va shaxsning da'volari o'rtasida keskinliklar mavjud ekanligini ko'rish mumkin.

Jejn Ostin ijodida obrazli til vositalarining o'rni va tavsifi.

Jeyn Ostin o'z asarlarida metafora, personifikatsiya, tasviriy ifoda, o'xshatish, simbolizm, istehzo va boshqa obrazli til vositalaridan keng foydalangan. Biroq, ushbu obrazli til vositalarini Ostin asarlarini chuqur tahlil qilmasdan oldin topish mushkul. Buning sababi Ostin o'z asarlarida ko'pincha kinoya, istehzo usulidan foydalangan, ya'ni qo'llanilgan so'zlar yoki tasviriy ifodalar aynan o'z ma'nosida emas, qiyoslash yoki o'xshatish uchun foydalanilgan.

Xususan, Jeyn Ostinning “Andisha va G'urur” asarini olaylik. Ushbu asarda sof muhabbat va uning chiroyli yakuni haqida tarannum qilingan. Jeyn Ostin ushbu asarida g'urur va mag'rurlik kabi hislatlar insonning hayotida tub burilish yasashi mumkinligi mohirona tarzda yoritib beriladi. Asar qahramonlari o'z muhabbatlari ortidan borar ekan, ushbu maqsadga erishishda ular dunyoning moddiylik, boyluk kabi insonlarni bir-biridan ayiruvchi sovuq shabbodasi, achchiq haqiqatlari va zavqli lahzalari bilan hisoblashishiga to'g'ri keladi. Ushbu asardagi obrazli til vositalari asar mazmunini yanada boyitadi. Ushbu asarda qo'llanilgan badiiy tasviriy til vositalarini ko'rib chiqamiz.

Asarda balga kelgan Mister Darsi birinchi marta Elizabetni ko'rganda quyidagi so'zlarni aytadi:

“Tolerable, but not handsome enough to tempt me.”

“Yomon emas. Lekin mening yuragimga yo'l topa oladigan darajada chiroyli emas.” Ushbu gapda Darsi Lizzini (Elizabet) “yuragimni vasvasaga soladigan darajada chiroyli emas” deya ta'riflamoqda, bu iqtibos vaziyatli istehzoning bir namunasidir, ya'ni roman oxirida Darsi Lizni sevib qoladi va natija kutilganidan boshqacha tus oladi. O'xshatishga misol qilib esa, Elizabet va opasi Jeynning o'zaro suhbatidagi quyidagi gapni keltirish mumkin:

“Your profusion makes me saving; and if you lament over him much longer, my heart will be as light as a feather”

“Sening bu darajada saxiyliging menga o'z tuyg'ularimni avaylay olish imkonini berayapti, agar yana biroz u (Darsi) uchun shunday qayg'urib tursang, mening yuragim xuddi patdek yengilgina bo'lib qoladi.” Ushbu holatda *“as light as feather”* - pat kabi yengil degan ma'noni ifodalamoqda. Ammo, bu yerda “feather” “qush” ma'nosini ifodalayotgani aniq. Emili Dikkinson ham o'z she'rilarida “feather” (lug'aviy ma'nosi qushning pati) so'zini qush ma'nosida qo'llaydi.

Bundan tashqari, Jeyn Ostin “Andisha va g'urur” asarida metaforalardan ham mohirona tarzda foydalangan. Jumladan, Bennetlar o'rtasidagi o'zaro suhbatda ham bu o'z tasdig'ini topgan.

You mistake me, my dear. I have a high respect for your nerves. They are my old friends.

Azizam, siz yanglishyapsiz. Men sizning asablarinigizni juda qadrlayman. Axir ular mening eski dostlarim-ku. Ushbu gapda Bennet xonimning asablarini janob Bennet o'zining doimiy, eski do'stlariga o'xshatmoqda. Umuman olganda, Ostin ijodida obrazli til vositalarining deyarli barcha turlarini uchratish mumkin.

Xulosa.

Jeyn Ostinning adabiy merosi zamondoshlari davrida ham, hozirgi zamonaviy badiiy adabiyotda ham o'z o'rniga ega. Zamonaviy adabiyotshunoslar uning ijodini Vilyam Shekspirniki bilan solishtirishadi. Aynan mana shunday taqqoslashning o'zi ham Ostin ijodining ingliz badiiy adabiyotidagi o'rni qay darajada ta'sirli ekanini ko'rsatib beradi. Shu nuqtayi nazardan ushbu adiba tomonidan yozilgan asarlarning o'zbek o'quvchilari uchun o'rni beqiyosdir. Ostin qishloq hayotini yoritir ekan, u yerdagi insonlarda tantilik, beg'uborlik kabi hislatlarni ajoyib tarzda ochib beradi.

Ostin asarlari o'zining o'tkir satirik va yumoristik usulda yoritilganligi va jamiyatdagi barcha tabaqalarning qamrab olinganligi ushbu adibaning mavqeyini yanada oshirdi. Ostin ayollar va erkaklar o'rtasidagi hissiy o'yinlarni mohirona tarzda yoritib berolgan kam sonli ingliz yozuvchilardan biri hisoblanadi. Ostinning asarlari jamiyatdagi olchoqliklarni yorqin tarzda ifodalay oldi, aynan mana shunday xususiyatlar ushbu romanlarning badiiy adabiyotda o'chmas iz qoldirishiga sabab bo'ldi. Qisqacha qilib aytganda, Jeyn Ostin o'z asarlarida nafaqat jamiyatdagi muammolarini mohirona yorita olgan, balki o'z asarlarida badiiy obrazli til vositalaridan ham ustamonlik bilan foydalangan.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Abduolimova, M. N. Q. (2022). KOGNITIV METAFORA NAZARIYASI: YANGI YO 'NALISHLAR. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(3), 153-161.
2. Hakimova, Z. T. Q. (2022). Kognitiv tilshunoslikda metafora termini va unga turlicha yondashuvlar. *Science and Education*, 3(5), 1976-1981.
3. Abdulxay, Q. (2022). INGLIZ BADIY ADABIYOTIDA METAFORALARNING O'RNINI VA TAVSIFI. *INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL*, 3(3), 300-303.
4. Bautz, A. (2007). “Early Nineteenth-Century Readers of Jane Austen.” *Literature Compass*, vol. 4, no. 5, pp. 1412–1427.
5. Brewer, C. (2015). “‘That Reliance on the Ordinary’: Jane Austen and the Oxford English Dictionary.” *The Review of English Studies*, 66(276), 744-765.
6. Friend, S (2010). “Getting carried away: Evaluating the emotional influence of fiction film.” *Midwest Studies in Philosophy* 34 (1):77- 105. [Doi: 10.1111/j.1475-4975.2010.00196.x](https://doi.org/10.1111/j.1475-4975.2010.00196.x)
7. Fitzgerald, P. (1912). *Jane Austen: A criticism and appreciation*. Jarrold & sons. Retrieved from <https://babel.hathitrust.org/cgi/pt?id=uc1.b4102785&view=image&seq=9>
8. Haydarova, U. (2022). YAPON MUMTOZ ADABIY MANBALARIDA QO 'LLANGAN METAFORALAR VA ULARNING DINIY-FALSAFIY TALQINI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(1), 950-958.
9. Kosimov, A. (2022). METAFORANING O'RGANILISHIGA DOIR YONDASHUVLAR. *ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ АХБОРОТНОМАСИ*, 4(2), 114–116.
10. Kosimov, A. (2022). TILSHUNOSLIK VA PSIXOLOGIYADA METAFORALARNING TUTGAN O'RNINI, SHARQ VA G'ARB OLIMLARINING METAFORALAR YASALISHI BORASIDAGI FIKRLARI. *БАРҚАРОРЛИК ВА ЕТАКЧИ ТАДҚИҚОТЛАР ОНЛАЙН ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ*, 2(3), 124-127.
11. Latipov, S. (2022, February). TEACHING ENGLISH IN A NATURAL WAY. In *Multidiscipline Proceedings of Digital Fashion Conference* (Vol. 2, No. 1).
12. Mazzeno, L. W. (2011). *Jane Austen: Two centuries of criticism*. Rochester, N.Y.: Camden House.

12. Mo'minova, G. (2022, February). FACTORS AFFECTING VOCABULARY LEARNING STRATEGY USE. In *International journal of conference series on education and social sciences (Online)* (Vol. 2, No. 2).
13. Pollack-Pelzner, D. (2013). Jane Austen, the Prose Shakespeare. *SEL Studies in English Literature 1500-1900*, 53(4), 763-792.
14. Qosimov, A. A. (2022, May). INGLIZ TILIDA OBRAZLI TIL VOSITALARI VA ULARNING KLASSIFIKATSIYASI. METAFORLARNING BOSHQA OBRAZLI TIL VOSITALARIDAN FARQI. In *International journal of conference series on education and social sciences (Online)* (Vol. 2, No. 4).
15. Sulloway, A. (2016). *Jane Austen and the Province of Womanhood*. University of Pennsylvania Press.
16. Todd, J. (2005). *Jane Austen in context* (Austen, Jane, 1775-1817. Works. 2005). Cambridge, UK; New York: Cambridge University Press.
17. Shermamatova, S., & Yusupova, S. (2022, April). TRANSLATION THEORIES OF NEOLOGISMS. In *International Virtual Conference on Language and Literature Proceeding* (Vol. 1, No. 2).
18. Sultanovna, U. S. (2020). Social and philosophical foundations of the Uzbek and English enlightenment movement in literature. *Проблемы современной науки и образования*, (3 (148)).
19. Toirova, N. (2022). LINGUOCULTURAL ANALYSIS OF PHRASEOLOGICAL UNITS IN EASTERN CULTURE. *INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL*, 3(5), 75-84.
20. Todd, J. (2005). *Jane Austen in context* (Austen, Jane, 1775-1817. Works. 2005). Cambridge, UK; New York: Cambridge University Press.
21. Umarova, M. (2021). THE ROLE OF CULTURE IN THE LEARNING ENVIRONMENT. *Frontline Social Sciences and History Journal*, 1(08), 90-99.
22. Usmonova, S. (2021). The national revival period in Uzbek enlightenment literature.
23. White, G. (2006). *Jane Austen in the context of abolition: "a fling at the slave trade"*. Houndmills, Basingstoke, Hampshire; New York: Palgrave Macmillan.
24. White, L. (1998). *Critical essays on Jane Austen* (Critical essays on British literature). New York: London: G.K. Hall; Prentice Hall International.
25. Галимуллина, Л. (2021). Некоторые особенности в переводе фразеологических единиц с английского языка на узбекский язык. *Общество и инновации*, 2(8/S), 205-213.